

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-  
SON  
ILOVA  
TO'PLA  
M

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.A.Mamajonov**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati ..... 544

**B.A.Pulatov**

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari ..... 547

**K.I.Marayimova**

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 551

**N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva**

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari ..... 556

**D.I.Asqarova**

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari ..... 560

**M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov**

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari ..... 567

**M.Q.Jabborova**

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari ..... 570

**FALSAFA****A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari ..... 577

**I.M.Arzimatova**

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi ..... 581

**D.E.Normatova**

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati ..... 586

**I.A.Asatulloev**

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili ..... 591

**T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov**

Korrupsiaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari ..... 595

**S.S.Evatov**

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi ..... 600

**I.Y.Toirov**

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari ..... 604

**A.M.Rasulov**

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili ..... 608

**A.A.Sayitxonov**

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi ..... 612

**F.A.Yuldashev**

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests ..... 616

**S.P.Tojiboyev**

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili ..... 622

**B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov**

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari ..... 628

**M.A.Abduxamidov**

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili ..... 632

**SIYOSAT****J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ..... 635

**A.A.Ganiyev**

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati ..... 640

**TARIX****B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir ..... 645



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA XUQUQIY VA AXLOQIY-ME'YORIY MUNOSABATLAR, O'ZARO MULQOT MADANIYATI**

**ПРАВОВЫЕ И ЭТИКО-НОРМАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ, КУЛЬТУРА ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**LEGAL AND ETHICAL-NORMAL RELATIONS, CULTURE OF MUTUAL COMMUNICATION IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Mamajonov Raximjon Akramovich

Farg'onan davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida huquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro mulqot madaniyati nomli maqolam talim muassasalarda tahsil olayotgan hozirgi kundagi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha juda muhim dolzarb ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.*

**Annotation**

*Моя статья под названием «Правовые и этико-нормативные отношения, культура взаимного общения в Вооружённых Силах Республики Узбекистан» служит очень важной актуальной информацией по воспитанию молодого поколения, обучающегося в образовательных учреждениях, в духе духовности, этики и патриотизма.*

**Abstract**

*My article entitled "Legal and ethical-normal relations, culture of mutual communication in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan" is very important current information on educating the young generation studying in educational institutions in the spirit of spirituality, ethics and patriotism. serves as.*

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, Qurolli Kuchlar, Vatan sha'ni, Vatan ximoyasi, vatanparvarlik, Milliy armiya, intellektual saloxiyat, jismoniy tayyorgarlik, harbiy qurilish, tadbirkorlik, ilm-fan, konsepsiya.

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, Вооруженные Силы, Честь Родины, Защита Родины, патриотизм, Национальная Армия, интеллектуальная мощь, физическая подготовка, военное строительство, предпринимательство, наука, концепция.

**Key words:** Republic of Uzbekistan, Armed Forces, Honor of the Motherland, Defense of the Motherland, patriotism, National Army, intellectual power, physical training, military construction, entrepreneurship, science, concept.

**KIRISH**

Harbiy qurilish sohasidagi asosiy maqsad — professional armiyani, o'z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta'lif olgan, o'z xalqiga, ona zaminiga, Prezidentiga sadoqatli bo'lgan, o'z Vatanining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qila oladigan jangchilarga ega bo'lgan armiyani bosqichma-bosqich vujudga keltirishdan iborat.

Miqdor jihatdan uncha katta bo'lmagan, tezkor, yaxshi tayyorgarlikka ega, zamonaviy qurollar va texnika bilan ta'minlangan, O'zbekiston xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlarni shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2001-yil 11-mayda qabul qilingan «Mudofaa to'g'risida»gi qonun (yangi tahriri) mamlakat mudofaasi tushunchasiga aniqlik kiritdi. Unda «O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi», deb ko'rsatiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Me'yoriy-huquqiy hujjalarga rioya qilish, bu — xar insonnинг madaniyat ko'rsatkichi bo'lib, ayniqsa Vatan himoyachilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda harbiy xizmatchilarda madaniyat ko'rsatkichining yuqoriligi ular huquqiy ongingin oshishiga yordam beradi, qonunchilikni, huquqiy tartibni, shu jumladan harbiy nizomiy tartibni ham mustahkamlaydi. Harbiy-huquqiy madaniyat bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi va siyosiy madaniyatning tarkibiy **qismi hisoblanadi**.

## PEDAGOGIKA

Harbiy huquq o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi.

**Birinchidan** - u harbiy xizmatchilarning munosabatlarini tartibga soladi.

**Ikkinchidan** — harbiy huquq me'yorlari yuqori darajadagi talabchanlik va qat'iyatlilik ruxida bo'lishni harbiy xizmatchilardan talab qiladi.

**Uchinchidan** — harbiy xizmatchilardan harbiy huquq me'yorlarini bajarish uchun yuqori mas'uliyat talab qiladi.

**To'rtinchidan** — Qurolli Kuchlarni tashkil qilish va boshqa harbiy munosabatlarni qat'iyantartibga soladi.

Avvalambor, harbiy huquqni Umumharbiy Nizomlar tashkil qiladi. Ular harbiy qoida, me'yor, axloq va madaniyatni qamrab olgan, bir tizimga keltirilgan harbiy xizmatchilar xizmati va faoliyatini belgilab beruvchi qoidalardan tashkil topgan. Qurolli Kuchlarimiz nizomlari harbiy xizmatni tashkil qilish bo'yicha yo'naliishlarga bo'lingan bo'lib, shu yo'naliishlar bo'yicha huquqiy me'yorlarni belgilab beradi.

**O'zaro muloqot madaniyati**-harbiy xizmatchilar muomala (muloqot) madaniyatining asosini Umumharbiy Nizomlar tashkil etadi. Nizomlar munosabatlar namunalarini modellashtiradi va belgilab beradi, ular harbiy jamoada harbiy xizmatchilarning muomala munosabati tamoyillariga mos keladi. Belgilab berilgan talablar barcha harbiy xizmatchilar uchun qat'iy va muhimdir.

Harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlarida muloqot katta o'rinni tutadi. SHuning uchun muloqot nima degan savolga javob beramiz.

**Muloqot**-insonning asosiy ehtiyojlaridan biri. Inson qanday yoshdaligidan qat'iy nazar o'zgalar bilan muloqotda bo'ladi, bu hayotiy zarur omillardan biridir.

Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlarini va ular o'tasidagi o'zaro munosabatlarni, ichki tartib qoidalarni belgilab berishda Ichki xizmat nizomi katta ahamiyatga ega. Mazkur nizomda o'zbek xalqiga xos axloqiy me'yorlarga alohida ahamiyat qaratilgan.

Harbiy xizmatchi xar doim yuksak madaniyat, kamtarlik va vazminlikning namunasi bo'lib xizmat qilishi, askariy or-nomusni muqaddas saqlashi, o'z qadr-qimmatini himoya etishi va o'zgalar qadr-qimmatini hurmat qilishi lozim. Ular o'zlarining xulqiga qarab, bo'linma, harbiy qism, butun Qurolli Kuchlarning or-nomusi to'g'risida xulosa chiqarishlarini yodda tutishlari lozim.

SHuning uchun xam harbiy xizmatchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida Harbiy jamoalarning o'zgacha o'rni bor. Harbiy jamoalarda oldindan saqlanib kelinayotgan huquqiy, axloqiy va intizomiy an'analarining to'g'ri shakllanishi, umuminsoniylik tamoyillariga riosa qilinishi, qolaversa, askariy do'stlik, birodarlik va ahillik muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurolli Kuchlarda mustahkam intizomni ta'minlash, harbiy xizmatchilar o'tasidagi intizomiy munosabatlarni yo'lga solish, rag'batlantirish, jazolash va jazolarni qo'llash tartibi Intizom nizomida ko'rsatilgan.

Shu tariqa harbiy-axloqiy munosabatlar me'yorlari qoida, majburiyat, an'ana, buyruq ko'rsatma va yo'l-yo'riqlarda o'z aksini topadi.

*Harbiy xizmatchilarda axloqiy tarbiyaning aqly-mahaviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvoqfdi.*

Harbiy jamoalar va harbiy xizmatchilar o'tasida sport musobaqalarini o'tkazish harbiy xizmatchilarni jismoniy chiniqtirish, ushbu jarayonda ularning harbiy axloqi va odobini tekshirish, ular orasidagi do'stlik, o'zaro ko'makdoshlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Harbiy xizmatchilar o'tasidagi o'zaro munosabatlar harbiy jamoa a'zolarining o'zaro muomalasi, kichik va katta unvondagilarga bo'lgan hurmati, o'zaro do'stona munosabati, birodarligi xamda kundalik xizmat jarayonidagi vazifalarni bajarishi mobaynida yaqqol ko'rindi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Harbiy jamoadagi do'stlik, askariy birodarlik axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-ruhiy sifatini o'zida aks ettiruvchi ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. U bo'linma, qism tomonidan jangovar vazifalarni bajarish, jumladan jangchilarning jangovar navbatchilik, qorovullik xizmatini olib borishlarda va boshqa turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda harbiy xizmatchilarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi, o'zaro yordami ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun xam Harbiy jamoada do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro ko'makdoshlikning o'rni o'zgacha.

## XULOSA

Xulosa qilganda, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardanoq mamlakat mudofaasini tashkil etish va Qurolli Kuchlar faoliyatining huquqiy mezonlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXVI bobi mudofaa va xavfsizlik masalalarini qamrab olgan. Qurolli Kuchlarni, harbiy xizmatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining «**Mudofaa to'g'risida»gi va «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlari harbiy xizmatda huquqiy normalarning asosi bo'ldi.**

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi, T. 2023 y.
2. SH.M.Mirzoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2022
3. SH.M.Mirzoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topganligini 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali yilg'ilishida so'zlagan nutqi.
4. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi Qonuni T. 2002 y.
5. R. I. Ahmedov. "O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari-tinchlik va barqarorlik kafolati". Sharq nashriyoti 2004 y.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. Toshkent. Sharq nashriyoti 2004 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari. Toshkent. Sharq nashriyoti 1996 y.
8. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi 2017-yil 18-dekabr.